



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 493-498 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### SITRUS MEVALAR YETISHTIRISHNI IQTISODIY RAG‘BATLANTIRISHNING SAMARADORLIGI: O‘ZBEKISTON MISOLIDA



**Qurbonov Shovqi Djurayevich**

Tayanch doktorant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekistonda sitrus mevalarini yetishtirishda iqtisodiy rag‘batlantirishning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, agrar sohani davlat qo‘llab-quvvatlashi va turli soliq imtiyozlari sitruschilikning o‘shishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bozor mexanizmlari va innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari ham o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** sitrus mevalari, iqtisodiy rag‘batlantirish, O‘zbekiston, agrar siyosat, soliq imtiyozlari.


**Kirish.** Sitrus mevalar iste‘molchilarning xayotiy zarur vitamin va minerallarga boy mahsulotlardan biri hisoblanishi, uning o‘zgacha ta‘mi bilan ajralib tursa, uning tashqi ko‘rinishidagi o‘zgacha shakl va ranglar ham yetishtirishni rag‘batlantiradigan omillardan biri sanaladi. Bu esa qulay agrobiznes muhiti yaratilgan sharoitda barqaror rivojlanishi uchun tabiiy-iqlim sharoiti va imkoniyatlari mavjud bo‘lgan holatda ishlab chiqraish hajmi hajmi doimiy ravishda o‘shib borishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ta‘kidlanganidek mamlakatimizda sitrus mevalar orqasida limon yetishtirish uzoq yillik tajribaga hamda ilmiy - texniy asoslarga tayanib, shakllangan bozor sharoitida barqaror rivojlanmoqda.

Respublikamizning tabiiy-geografik joylashgan o‘rni, mahsulot yetishtirish uchun qulay iqlim sharoiti, mehnat resurslari bilan, ayniqsa tomorqa xo‘jaliklarida ta‘minlanganligi, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishdagi imkoniyatlari va himoyalangan yer maydonlarida mahsulot yetishtirish borasida to‘plangan uzoq yillik amaliy tajribalar yuqori sifatli, tashqi va ichiki bozorda raqobatbardosh sitrus mevalar yetishtirishda qulay omillar hisobalandi.

**Metodlar.** Mamlakatimizda sitrus mevalarni yetishtirish dinamikasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, mustaqillikning ilk yillarida asosan limon yetishtirishga urg‘u qaratilgan bo‘lsa, iqtisodiyotning globallashuvi hamda ilm fan taraqqiyoti ta‘sirida mamlakatimizda ham oz miqdorda bo‘lsada boshqa turdagi, xususan kivi, banan va mandarin kabi sitrus mevalarni yetishtirish tajribalari o‘zlashtirildi. Yana bir o‘ziga xos jihati shundaki sitrus mevalarni yetishtirishda asosiy xo‘jalik shakli bu asosan aholi tomorqalari hisoblanadi.

Statistik raqamlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda respublika miqyosida 1.7 ming gektar maydonda sitrus mevalar yetishtirilayotgan bo‘lib, o‘rtacha 11 ming tonna mahsulot olinmoqda (1-rasm). Xususan, 2017 yilda jami 1.1 ming gektar

maydonga sitrus mevalar yekilgan bo'lsa, 2019 yilga kelib 1.2 ming gektar, 2021 yilda 1,6 ming gektar hamda 1.7 ming gektarda sitrus mevalar yetishtirilmoqda.



**1-rasm. Sitrus mevalar maydoni va yetishtirilgan mahsulot hajmi**

Ko'rinib turibdiki yaratib berilgan qulay agrobiznes muhiti sababli mamlakatimizda sitrus mevalarni yetishtirish maydoni hamda mahsulot miqdori yildan yilga barqaror o'sish dinamikasiga ega bo'lib bormoqda.

Ammo mamlakatimizda yetishtirilayotgan sitrus mevalar orasida limon hamon yetakchilik qilib, asosiy turdagi mahsulotligicha qolmoqda. Shunga qaramasdan so'nggi yillarda kivi, mandarin va banan yetishtirish imkoniyatlari o'zlashtirilayotganligini raqamlarda kuzatishimiz mumkin. Jumladan, 2017 yilda jami sitrus mevalar maydoni va mahsulot hajmiga nisbatan limon 99,4 foizni tashkil etgan bo'lsak, bu ko'rsatkich 2021 yilga kelib 99,1 va 2023 yilga kelib 98,5 foizgacha qisqargan holda kivi ulushi 2017 yildagi 0,2 foizdan 2023 yilda 1,1 foizgacha oshganligini kuzatishimiz mumkin (1-jadval).

**1-jadval**

**Mamlakatimizda yetishtirilayotgan sitrus mevalar va ularning umumiy hajmdagi ulushi, foizda<sup>1</sup>**

Ko'rsatkichlar	Yillar			
	2017	2019	2021	2023
Jami sitrus mevalar maydoni va mahsulot hajmiga nisbatan, foizda	100	100	100	100
Shundan				
Limon	99,4	99,4	99,1	98,5
Kivi	0,2	0,2	0,5	1,1
Mandarin	0,1	0,1	0,1	0,1
Banan	0,1	0,1	0,1	0,2
Boshqa	0,2	0,2	0,2	0,1

<sup>1</sup> Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan

Tahlil natijalari va jadvaldan ko'rinib turibdiki, "Respublika limon yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi" tashkil etilgan bo'lib, 2018-2019 yil oralig'ida ushbu uyushmaga 1300 tadan ziyod limon yetishtiruvchi turli mulkchilik shaklidagi sub'yektlar a'zo bo'lib kirgan.

O'z navbatida so'nggi yillarda sitrus mevalarni yetishtirish hajmi va ularning tarkibi o'zgarib borayotganligini to'g'ri baholangan holda tarmoqda o'zgarishlarga mos agrosloxlarni amalga oshirishni ta'minlash choralari amalda kengaytirildi. Olib borilgan bunday tarkibiy o'zgarishlar natijasida boshqa turdagi sitrus mevalarni yetishtiruvchilarni ham rag'batlantirish tizimi yaratilgan holda mahsulot yetishtirish hajmi sezilarli o'sishga erishildi.

Mamlakatimizda sitrus mevalar, xususan limon yetishtirish dehqon xo'jaliklarini qo'shimcha daromad manbai sifatida qaralib, u kam mehnat talabligi hamda aylanmadan chiqib ketgan yerlarda ham yetishtirish imkoniyatlari yuqoriligi bois doim qiziqish uyg'otgan va bu qiziqish yaratilgan imkoniyatlar tufayli yanada ortib bormoqda. Buni hududlar kesimida limonzorlar maydoni o'zgarish dinamikasida (2017 yildan buyon 106,1 foiz o'sish) ham kuzatish mumkin (2 - jadval).

## 2-jadval

### Respublika bo'yicha hosilga kirgan limon maydoni o'zgarish dinamikasi<sup>2</sup>

№	Hududlar nomi	Shundan yillar kesimida limonzorlar maydoni, ga				2023 yil 2017 yilga nisbatan, foizda
		2017	2019	2021	2023	
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1	1	0,9	0,4	-
2	Andijon	98	118	124	136	138,8
3	Buxoro	19	20	22	18	94,7
4	Jizzax	14	15	15	46	328,6
5	Qashqadaryo	65	68	72	52	80,0
6	Navoiy	12	12	15	9	75,0
7	Namangan	25	28	35	43	172,0
8	Samarqand	21	20	23	10	47,6
9	Surxondaryo	101	98	119	103	102,0
10	Sirdaryo	0	0	0	0	-
11	Toshkent	19	18	22	16	84,2
12	Farg'ona	235	265	291	221	94,0
13	Xorazm	0	0	0	1	-
<b>Jami</b>		<b>609</b>	<b>662</b>	<b>739</b>	<b>646,4</b>	<b>106,1</b>

**Tahlil va natijalar.** Jumladan, 2017 yilda Andijon viloyatida limonzorlar maydoni 98 gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda 118 gektarga, 2021 yilda 124 gektar va 2023 yilga

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi ma'lumotlari asosida tuzildi

kelib 136 gektarga yetgan yoki 2017 yilga nisbatan 2023 yilda 38,8 foizga o'sganligini kuzatishimiz mumkin.

Shuningdek, Jizzax viloyatida ham 2017 yilga nisbatan 2023 yilda 3,3 barobar o'sish dinamikasi kuzatilib, 2017 yildagi 14 gektardan 2019 yilda 15 gektar va 2023 yilda 46 gektarga yetgan. Undan tashqari Namangan (72 foiz o'sish), Surxondaryo (2 foizga o'sish) viloyatlarida ham o'sish dinamikasi kuzatilmoqda.

Ammo limonlarning tuproq tarkibiga hamda yer iosti suvlariga nisbatan talabi yuqoriligi bois Sirdaryo, Xorazm viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida limonzorlar maydoni qariyb mavjud emas. Shuningdek, Navoiy, Samarqand viloyatlarida ham nisbatan kichik yer maydonlarida mahsulot yetishtiriladi.

O'z navbatida ta'kidlash joizki, 2023 yil yanvar oyida kuzatilgan anomal sovuq natijasida ko'plab limonzorlar sovuq urishi sababli nobud bo'lgan bo'lib, aksariyati qayta ekishga muxtoj holatga kelgan. Bu esa 2023 yilda 2021 yilga nisbatan limon maydonlari kamayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Tarmoqqa yaratib berilayotgan imkoniyatlar hamda dehqon xo'jaliklarini yerdan samarali foydalanish, ish bilan ta'minlashga oid dasturlar yordamida qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan e'tibor sababli limonzorlar maydoni yana o'sish dinamikasini namayon etadi. Sababi mamlakatimizga limonga bo'lgan talab hamda iste'mol madaniyati o'sib bormoqda. Ammo, limonlarning 3 yilgacha bo'lgan muddatda to'liq hosilga kirishini e'tiborga olganda yaqin istiqbolda limon yetishtirish ko'rsatkichlari nisbatan pasayishi mumkin.

Limon yetishtirish hajmini oshirishning yagona yo'li bu hosildorlikni oshirish bo'lib, bunga faqatgina innovasion texnologiyalar hamda samarali agrotexnologiyalar bilan erishish mumkin. Mamlakatimizda limon hosildorligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, so'nggi yillarda barqaror o'sish dinamikasini namayon etmoqda. Jumladan, 2017 yilda limon maydonlarining o'rtacha hosildorligi 161,9 s/ga ni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda 151,3 s/ga.ni, 2021 yilda 157,5 s/ga.ni va 2023 yilda 164 s/ga.ni tashkil etgan holda o'rganilgan yillar oralig'ida 1,3 foizga o'sgan (3-jadval).

**3-jadval**

**Respublika bo'yicha hosilga kirgan limonzorlar hosildorligi o'zgarish dinamikasi<sup>3</sup>**

№	Hududlar nomi	Shundan yillar kesimida limonzorlar hosildorligi, s/ga				2023 yil 2017 yilga nisbatan, foizda
		2017	2019	2021	2023	
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	137,8	140,0	90,0	125,0	90,7
2	Andijon	328,5	277,2	218,7	225,4	68,6
3	Buxoro	248,1	239,5	294,5	310,6	125,2
4	Jizzax	38,0	36,0	25,3	11,1	29,2
5	Qashqadaryo	283,8	275,6	340,4	382,1	134,7
6	Navoiy	169,8	172,5	276,0	394,4	232,3
7	Namangan	266,5	241,8	183,1	166,3	62,4

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi ma'lumotlari asosida tuzildi.

8	Samarqand	150,9	161,0	238,7	333,0	220,7
9	Surxondaryo	178,7	187,1	187,7	188,1	105,2
10	Sirdaryo	0,0	0,0	0,0	0,0	-
11	Toshkent	157,5	161,7	135,9	136,3	63,0
12	Farg'ona	49,1	44,2	64,1	68,9	140,3
13	Xorazm	0,0	0,0	0,0	90,0	-
<b>Jami</b>		161,9	151,3	157,5	164,0	101,3

Hududlar kesimida esa eng yuqori hosildorlik 2023 yilda Buxoro (333 s/ga), Navoiy (394,4 s/ga) va Qashqadaryo (382,1 s/ga) viloyatlarida kuzatilgan bo'lsa, eng past hosildorlik Jizzax (11,1 s/ga) va Farg'ona (68,9 s/ga) viloyatlarida kuzatilmoqda. Bu ushbu hududlarda yangi hosilga to'liq kirmagan limonzorlarning ko'pligi bilan izohlash mumkin.

**Munozaralar.** Hosildorlikning hududlar kesimida turlicha namayon bo'lishiga tuproq tarkibi hamda ushbu hududlardagi dehqonchilik madaniyati ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Sababi ba'zi hududlarda limon yetishtirish orqali qo'shimcha daromad manbai sifatida qaralsa, ba'zi hududlarda bu shunchaki oila talabini qondirish hamda yerdan samarali foydalanish, bo'sh yerlarni band qilish yoki ekzotik dehqonchilik sifatida qaraladi. Bu esa mahsulot hosildorligiga bevosita ta'sir qiladigan omillar sanaladi.

Xulosa sifatida, dehqonlarimizning tajribalari asosida avval qulupnay va limon mahalliyashtirildi. Hozirda kivi, mandarin, hattoki banan ham tomorqada yetishtirilyapti. Bunday misollarni Bulung'ur, Kattaqo'rg'on, Toyloq va boshqa tumanlarda uchratish mumkin.

Respublikaning barcha hududlarida sitrus mevalar yetishtiruvchi zamonaviy issiqxonalarni qurish, mavjudlarini kengaytirish, ushbu sohada mahsulot yetishtiruvchilarga xizmat ko'rsatish tizimi, marketing tadqiqotlarini rivojlantirish, ayniqsa hududiy ulgurji bozorlarning saqlash va saralash imkoniyatlarini oshirish, ularni eksport imkoniyatlari hamda axborot bilan uzluksiz ta'minlash tizimini yaratish dolzarblik kasb etmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 4 martdagi "Dehqon xo'jaliklari va aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, suvga chidamli, eksportbop daraxt plantatsiyalarini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 119-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/3130164>

2. Energo-tejamkor issiqxonalarni qurish va ulardan foydalanish bo'yicha qo'llanma. BMT Taraqqiyot Dasturi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, 2013 yil. 48 bet.

3. Yegorov Ye.A. Organizatsiya vosproizvodstva v promyshlennom plodovodstve. Krasnodar, 2009. 267 s. <https://cyberleninka.ru/article/n/>.

4. Yegorov Ye.A., Paramonov P.F., Sinyagovskaya J.G. Ekonomicheskaya effektivnost proizvodstva i sbyta plodov. Krasnodar: KGAU, 2005. 179 s.

5. Yegorov Ye.A., J.A. Shadrina i G.A. Kochyan «Ekonomicheskoye usloviya ustoychivogo razvitiya promyshlennogo sadovodstva yuga Rossii» Sadovodstvo i vinogradarstvo. №1. 2012.

6. Imomov R.D. Limonchilik –dehqonchilikning serdaromad manbaidir. “Agrar soha salohiyatini oshirish, ko’p tarmoqli fermer xo’jaliklarini tashkil etish, ularga xizmat ko’rsatuvchi ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish: muammolar va yechimlar” mavzusidagi xorijiy mutaxassislar ishtirokida Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to’plami. 27 aprel 2019 yil, TDAU. 204-206-b.

7. Imomov R.D. Limonchilik sohasida integratsiya munosabatlari – kooperatsiyani rivojlantirishning muhim omilidir. AGRO biznes inform ijtimoiy-iqtisodiy ixtisoslashgan oylik jurnal. №11 (154) 2019 yil, 24-25-b.

8. Qurbonov Sh. Sitrus mevalarni yetishtirishni rag’batlantirish yo’llari // Agroiqtisodiyot. – T.: 2022. №1(27). b.114-116. (08.00.00; №25).

9. Qurbonov Sh. The importanse of providing citrus fruits. // Agroiqtisodiyot. – T.: 2023. №1(27).b.123-125. (08.00.00; №25).

10. Qurbonov Sh. “Sitrus mevalarni yetishtirishda Turkiya tajribasi va uning ijobiy jihatlari” Agroiqtisodiyot– T.: 2023.-b. 131-134. (08.00.00; №25).

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

